

SARS-CoV-2 ni genetik tashxislashda ilg'or texnologiyalar

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti O'zbekiston Respublikasi Biotibbiyot texnologiyalari assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda va mamlakatimizning "ROSSA" biotexnologiya kompaniyasi ko'magida "SARS-CoV-2 va boshqa virusli kasalliklarni tashxislashda zamonaviy yondashuvlar" mavzusida ilmiy-amaliy seminar bo'lib o'tdi. Ushbu seminarda respublikamizning barcha viloyatlaridan 100 ga yaqin mutaxassislar ishtirok etdi.





Seminardan ko'zlangan maqsad O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va aholi salomatligini muhofaza qilish xizmati yetakchi olim va amaliyot xodimlarining eng yangi biotexnologik tadqiqotlari, PSR tashxislashning zamonaviy usullari va texnologiyalari sohalarida ilg'or ilmiy-amaliy tajribalari bilan fikr almashishdan iborat.

Bundan tashqari, seminarda biotibbiyot texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari, ularni samarali mahalliyashtirish va respublikada tijoratlashtirish strategiyalari muhokama qilindi.